

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**YUSUPOVA MANZURA O'KTAMOVNA**

**“XX ASR 2-YARMI - XXI ASR BOSHLARIDA BUXORO SHAHRI O'ZBEK  
VA TOJIKLARI AN'ANAVIY SAYILLARI, BAYRAMLARI VA  
TOMOSHALARINING ETNOHUDUDIIY XUSUSIYATLARIDAGI  
TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI (tarixiy-etnologik tahlil)”**

**07.00.07 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya**

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

**Фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати мундарижаси**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Yusupova Manzura O‘ktamovna**

“XX asr II yarmi - XXI asr boshlarida Buxoro shahri o'zbek va tojiklari an'anaviy sayillari, bayramlari va tomoshalarining etnohududiy xususiyatlaridagi transformatsiya jarayonlari (tarixiy-etnologik tahlil)..... 3

**Юсупова Манзура Ўктамовна**

"Процессы трансформации этнотерриториальных особенностей традиционных гуляние праздников и представлений узбеков и таджиков города Бухары во второй половине XX - начале XXI века (историко-этнологический анализ) .....27

**Yusupova Manzura Oktamovna**

"Processes of transformation in the ethno-territorial characteristics of the traditional feasts, holidays and performances of the Uzbeks and Tajiks of Bukhara in the second half of the 20th century - the beginning of the 21st century (historical-ethnological analysis)" .....55

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....57

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**YUSUPOVA MANZURA O'KTAMOVNA**

**“XX ASR 2-YARMI - XXI ASR BOSHLARIDA BUXORO SHAHRI O'ZBEK  
VA TOJIKLARI AN'ANAVIY SAYILLARI, BAYRAMLARI VA  
TOMOSHALARINING ETNOHUDUDIIY XUSUSIYATLARIDAGI  
TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI (tarixiy-etnologik tahlil)”**

**07.00.07 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya**

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.4.PhD/Tar1751 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<http://www.karsu.uz/>) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Bo'riyev Achil**

tarix fanlari nomzodi, professor.

**Rasmiy opponentlar:**

**Abdullayev Ulug'bek Saydanovich**

tarix fanlari doktori, professor.

**Raxmonov Faxriddin Shaymardonovich**

tarix fanlari doktori, professor.

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zR Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpog' gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpog' davlat universiteti huzuridagi tarix fanlari bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 raqamli Ilmiy Kengash huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi kengashning 2025 yil "7" VIII soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 230100, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-49; e-mail [karsu.info@edu.uz](mailto:karsu.info@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Qoraqalpog' davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (338 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230100, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-49; e-mail [karsu.info@edu.uz](mailto:karsu.info@edu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 21. VII kuni tarqatildi.

(2025-yil "21" VII dagi 11 raqamli reyestr bayonnomasi).



**M.A. Karlibaev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor



**X.M. Otegenov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent



**B.A. Koshanov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori, professor



## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda globallashtirish jarayonlari avj olgan bir paytda manfaatlar to'qnashuvi hamda milliy o'zlik va madaniy qadriyatlarga qarshi tahdidlar ortib bormoqda. Natijada Yer yuzining turli mintaqalarida yashovchi millatlar, xalqlar lokal madaniyatlari va qadriyatlarini saqlab qolishga tobora ehtiyoj kuchaymoqda. Bu zarurat dunyoda tinchlik, xavfsizlik, millatlararo totuvlik, bag'rikenglik va barqarorlikni ta'minlab, kelajakka istiqbolli yo'l ochadi. Shu boisdan xalqlarning urf-odatlarini, an'analari va milliy qadriyatlarini tadqiq qilish, uning o'ziga xos xususiyatlarini har tomonlama o'rganish ustuvor ilmiy masala bo'lib qolmoqda.

Jahonda ko'pgina yetakchi ilmiy tadqiqot muassasalari va markazlarida turli etnoslarning kelib chiqish tarixi, ularning mentaliteti, etnomadaniyati, sayillari, bayramlari, tomosha va o'yinlarining genezisi borasida samarali izlanishlar olib borilmoqda. Natijada bir qancha xalqlarning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari, milliy-etnik an'analari, etnomadaniyati borasida qimmatli ma'lumotlar to'planib, ilmiy yo'nalishga kiritildi. Lekin hali hanuz jahonga mashhur bo'lgan Buxoro shahri o'zbek va tojik xalqlarining an'anaviy sayillari, bayramlari, milliy o'yinlari va tomosha masalalari kompleks tarzda o'rganilmagan.

Yangi O'zbekistonda milliy o'ziga xoslikni, mentalitetni, asrlar silsilasidan o'tgan an'analarni, qadriyatlarni saqlab qolish, xalqlarning milliy-madaniy merosi, tarixiy qadriyat va an'analarni ilmiy tadqiq etish davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "O'zbekistondagi bag'rikenglik siyosati tufayli hozirgi kunda yurtimizda yagona oila bo'lib yashayotgan millat va elatlar vakillariga o'z ona tili, urf-odat va qadriyatlarni rivojlantirish uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda".<sup>1</sup> Shundan kelib chiqqan holda o'zbek etnologiyasi fani oldida Buxoro shahrida istiqomat qiluvchi o'zbek va tojik xalqlarining an'anaviy sayillari, bayramlari, milliy o'yinlari va tomoshalari etnotarixini ochib berish muammosi ustuvorligi bilan alohida ajralib turadiki, bu mazkur dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm - fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi 543-son "2022-2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda ushbu sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида // Халқ сўзи, 2017 йил 8 февраль.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy–ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Buxoro shahri o‘zbek va tojiklari an'anaviy sayillari, bayramlari va tomoshalari tarixini to‘laqonli o‘rganishda tarixiy yozma manbalar, arxiv hujjatlari, statistik ma'lumotlar, tarixiy-ilmiy adabiyotlar, arxeologik topilmalar, etnografik dala ma'lumotlarining o‘rganilishi, mavzunining manbashunosligi va tarixshunosligi to‘g‘risidagi ma'lumotlar tavsifi dissertasiyaning birinchi bobidagi ikkinchi paragrafida to‘liq to‘xtalib o‘tilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot ishi Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot rejasiga muvofiq “Buxoro vohasining moddiy va nomoddiy madaniyati: arxeologik va etnologik tadqiqotlar” nomli loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Buxoro shahrida istiqomat qilgan o‘zbek va tojiklarning an'anaviy sayillari, bayramlari va tomoshalaridagi transformatsiya jarayonlarini tarixiy-etnologik yo‘nalishda tahlil etishdan iboratdir.

**Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:**

Buxoro shahrining tabiiy-geografik tavsifi, aholisining etnik tarkibi va joylashuvini bayon qilish hamda mavzuning manbashunosligi va tarixshunosligini yoritib berish;

Buxoro shahar o‘zbek va tojiklarining an'anaviy sayillari va bayramlaridagi transformatsiya jarayonlarini tavsiflash;

hudud o‘zbek va tojiklari milliy o‘yinlarining tarixiy ildizlarini tahlil qilish, hamda undagi o‘zgarishlarni bayon etish;

Buxoro shahri o‘zbek va tojiklarining tomosha san'atidagi modernizatsiya jarayonlarini dalillash;

shahar o‘zbek va tojiklari sayil, bayram va tomoshalarining lokal xususiyatlari hamda umumiy jihatlarini o‘rganish orqali bu borada to‘plangan tajribalarni umumlashtirish;

mavzu bo‘yicha xulosa, taklif va tavsiyalar berishdan iborat.

**Tadqiqotning obykti** sifatida Buxoro shahri o‘zbek va tojiklari an'anaviy sayillari, bayramlari va tomoshalarining etnohududiy xususiyatlaridagi transformatsiya jarayonlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** Buxoro shahri o‘zbek va tojiklari an'anaviy sayillari, bayramlari va tomoshalarining etnohududiy xususiyatlarining jihatlarini, shuningdek, an'anaviy va zamonaviy sayillar, bayramlar va tomosha jarayonlaridagi lokal jihatlar hamda transformatsiya jarayonlarini yoritish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy, obyektivlik, tizimli tahlil, kuzatuv, og‘zaki tarix, anketalar orqali so‘rovnomma o‘tkazish, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Ilk bor Buxoro shahrida o‘tkazilib kelingan an’anaviy xalq sayillari, bayramlari va tomoshalarining tarixiy ildizlari va manbaviy asoslari O‘rta Osiyoda yaratilgan qadimiy qo‘lyozmalarda, mintaqaning yetuk allomalari asarlaridagi ma'lumotlarda atroflicha tavsif etilib, keng ko‘lamda ilmiy o‘rganildi;

Buxoro shahri o‘zbek va tojiklari tomonidan an’anaviy sayillar, bayramlar va tomoshalar: Navro‘z bayrami, Gullar bayrami, Sumalak sayli, Qovun sayli asrlar davomida hamjihatlik bilan o‘tkazilib kelgani – bu ommaviy tadbirlar ikki xalq o‘rtasida jamoaviylik, do‘stlik, qardoshlik aloqalarini yanada mustahkamlashga xizmat qilganligi hamda asrlar osha shakl va mazmun bilan boyitib borilganligi dalillandi;

shahar o‘zbek va tojiklari an’anaviy sayillari, bayramlari va tomoshalaridagi umumiylik va o‘ziga xoslik jihatlari qiyosiy tahlil qilinib, ularni uyushtirish va o‘tkazishdagi an’anaviylik hamda zamonaviylik tendensiyalari, shuningdek, transformatsion jarayonlarning dinamikasi masalalari ilmiy tadqiq etildi;

shahar aholisi sayillari, bayramlari va tomoshalari hozirgi davrda tobora modernizatsiyalashib borayotganligi ko‘p millatlar hamjihat bo‘lib yashayotgan aholi orasida tinchlik, osoyishtalik, millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilayotganligi muhim omil ekanligi asoslab berildi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Markaziy Osiyo mintaqasi, shu jumladan, O‘zbekistondagi milliy-etnik siyosatni shakllantirishga ilmiy asos bo‘lishi etnologik materiallar asosida ko‘rsatib berilgan;

O‘zbek etnomadaniyatining bir qismi bo‘lgan sayillar, bayramlar va tomoshalarining kelib chiqish tarixini, etnoijtimoiy asoslarini o‘rganish dunyo miqyosida kechayotgan integratsiya jarayonlarida etnik xususiyatlarni aniqlash, saqlab qolish, milliy-etnik an’analarni davom ettirish imkoniyatlarini kengaytirishi dalillangan;

Buxoro shahrida ko‘p vaqtlardan buyon yonma-yon yashab kelayotgan o‘zbek va tojik millatlarining hamda boshqa (turkman, qozoq, arab, fors, yahudiy, rus, tatar kabi) millatlar oilaviy-maishiy turmushidagi an’anaviy sayillar, bayramlar va marosimlarning bir-biriga ta’siri, bu boradagi transformatsiyalar globallashuv jarayonlari kontekstida ko‘rsatib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Tadqiqotda etnologiya fanida tan olingan yondashuv va usullar qo‘llanilganligi, turli tarixiy-etnografik, etnofolkloristika va etnolingvistikaga oid adabiyotlardan foydalanilganligi, birlamchi etnografik manbalarga asoslanganligi hamda tadqiqotlar jarayonida olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* O‘zbekistonning ko‘p millatli hududlarida ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni mustahkamlash, millatlararo totuvlikni ta‘minlashga doir tahliliy ma‘lumotlar tayyorlashda, yurtimizda yashayotgan etnik guruhlar va diasporalar tarixi, madaniyatiga, etnoturizmga oid ilmiy-ommabop nashrlar yaratishda, “O‘zbekiston – umumiy uyimiz” mavzuida loyihalar tuzish va festivallar o‘tkazishda, o‘zbek etnologiyasi va antropologiyasi doirasidagi yangi tadqiqotlar uchun ilmiy-nazariy manba bo‘la olishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning *amaliy ahamiyati* esa oliy ta‘lim tizimidagi “Tarix” yo‘nalishida “Etnologiya”, “Antropologiya”, “O‘zbekiston tarixi” “Madaniyatshunoslik”, “Tarixiy o‘lkashunoslik”, “Buxoro tarixi” kabi kurslarni o‘qitish, maxsus kurslar tashkil etish, mazkur fanlarga doir darslik va o‘quv qo‘llanmalarini tayyorlash va boyitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** XX asr II yarmi - XXI asr boshlarida Buxoro shahri o‘zbek va tojiklari an‘anaviy sayillari, bayramlari va tomoshalarining etnohududiy xususiyatlaridagi transformasiya jarayonlarini tadqiq etish jarayonida:

“07.00.07-Etnografiya, etnologiya va antropologiya” ixtisosligidan tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan “XX asr II yarmi - XXI asr boshlarida Buxoro shahri o‘zbek va tojiklari an‘anaviy sayllari, bayramlari va tomoshalarining etnohududiy xususiyatlaridagi transformatsiya jarayonlari (tarixiy-etnologik tahlil)” mavzusidagi dissertatsiya tadqiqoti natijalaridan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 6-noyabrdagi 491-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan 491495-sonli guvohnomaga muvofiq “Tarix falsafasi va metodologiyasi” nomli o‘quv qo‘llanma nashr qilinishida foydalanilgan.

Dissertatsiya ishining ilmiy-nazariy xulosalari asosida talabalar ongiga millatlararo bog‘rikenglik tamoyilini singdirishda milliy qadriyatlar, an‘analar va diniy marosimlar bilan bog‘liq jarayonlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bir qatorda barkamol avlodni tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning tahlili asosida ishlab chiqilgan ta‘lim jarayonini takomillashtirishga oid takliflari “60220300 - Tarix” ta‘lim yo‘nalishining malaka talabi mazmuniga singdirilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim fan va innovatsiyalar vazirligi oliy ta‘limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 21-apreldagi 02/01-01-145-son ma‘lumotnomasi). Bu tadqiqot natijalaridan olingan yangiliklar asosida mazkur joriylanish orqali yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlar ishtirokini ta‘minlashga erishiladi, shuningdek, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Buxoro shahrida o‘tkazilib kelingan an‘anaviy xalq sayillari, bayramlari va tomoshalarining tarixiy ildizlari asrlar davomida hamjihatlik bilan o‘tkazilib kelingani – bu ommaviy tadbirlar o‘zbek va tojiklar o‘rtasida jamoaviylik, do‘stlik, qardoshlik aloqalarini mustahkamlashga xizmat qilganligi hamda yangicha shakl va mazmun bilan boyitib borilganligi, ulardagi umumiylik va o‘ziga xoslik jihatlari qiyosiy tahlil qilinib, ularni uyushtirish va o‘tkazishdagi an‘anaviylik hamda zamonaviylik tendensiyalari to‘g‘risidagi ilmiy yangilik natijalaridan “Buxoro”

davlat muzey-qo'riqxonasida turli ko'rgazmalar tashkil qilishda hamda fond materiallarini kataloglashtirishda qo'llanilmoqda (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2024-yil 12-noyabrdagi 04-07/4277-son ma'lumotnomasi). Bu tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi fondining boyishiga xizmat qilgan.

Buxoro shahri o'zbek va tojiklari tomonidan an'anaviy sayillar, bayramlar va tomoshalar: Navro'z bayrami, Gullar bayrami, Sumalak sayli, Qovun sayli, milliy o'yinlar va xalq tomoshalari asrlar davomida hamjihatlik bilan o'tkazilib kelingani – bu ommaviy tadbirlar o'zbek va tojiklar o'rtasida jamoaviylik, do'stlik, qardoshlik aloqalarini yanada mustahkamlashga, hududiy yaxlitlik va etnoxususiyatlardagi zamonaviy yondashuvlar, milliy qadriyatlarning aholi orasida saqlanib qolishi bilan bog'liq taklif va tavsiyalari materiallarini keng jamoatchilikka yetkazishda foydalanildi (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 22-avgustdagi 01-09-120-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu teleko'rsatuv uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukamallashtirilib, ko'rsatuv ilmiy dalillarga boy bo'lishiga, hamda ommabopligini ta'minlashga, saviyasining oshishiga erishildi va Buxoro shahrida yashovchi turli xalqlar va diasporalarga xos tarixiy qadriyatlar, urf-odatlar va milliy tarbiya an'alarini asrab-avaylash, keng aholi qatlamlari o'rtasida targ'ib qilishga xizmat qildi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta konferensiyalarda, jumladan, 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 8 ta (4 ta respublika, 4 ta xorijiy) maqola e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Tadqiqot ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilova qismlaridan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 138 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, maqsad va vazifalari, obykti va predmeti belgilab olingan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi ko'rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi, hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning *“Buxoro shahri tabiiy-geografik tavsifi, aholisining etnik tarkibi va joylashuvi. Mavzuning manbashunosligi va tarixshunosligi”* deb nomlangan birinchi bobi ikki paragrafdan iborat. Uning *“Buxoro shahri tabiiy-geografik tavsifi, aholisining etnik tarkibi va joylashuvi”* deb nomlangan birinchi

paragrafida Buxoro shahrining geografik o'rnini, aholisining etnik tarkibi, joylashuvi bilan bog'liq masalalar ko'rib o'tilgan. Buxoro vohasi tabiiy-geografiyasi shakllanishida, ming yillar mobaynida o'zlashtirib, obod etilgan sug'orma dehqonchilik yerlarini suv bilan taminlashda Zarafshon daryosining tutgan o'rnini muhim ahamiyat kasb etganini, vohada daryodan 35 ta magistral kanallar oqib chiqqanidan ham ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun, tarixchilar tomonidan "Buxoro-Zarafshon daryosining tuhfasini" deb taqidlaganiga va ilmiy adabiyotlarda Buxoro vohasi "Quyi Zarafshon vohasi" deb yuritilishiga guvoh bo'lamiz. Shimoldan Qizilqum, sharqdan Qo'shtepa, Quyimozor, Qum-Sulton kabi tepaliklar, janub va janubi-g'arbdan Qorako'l platosi bilan o'rab olingan, asosiy qismi qumliklardan iborat.<sup>2</sup> Quyi Zarafshon vohasida daryo toshqinlaridan hosil bo'lgan son-sanoqsiz irmoqlar, ko'l va ko'lmaklar, baliqchilikni rivojlantirish imkoniyatini bergan katta va kichik sho'r ko'llarning mavjudligi<sup>3</sup> voha tabiatining shakllanishi va uning o'zlashtirilib obod etilishida muhim rol o'ynagan<sup>4</sup>. Buxoro o'z davrida ilm-fan, ma'rifat va madaniyat markazlaridan biriga aylanib, bu shaharda diniy va dunyoviy ilmlar rivoj topgan. Shu bilan bir qatorda uzoq yillar mobaynida Quyi Zarafshon hududining markaziy shahri bo'ldi. Buxoro shahrining barpo bo'lishi Zarafshon vodiysining o'zlashtirilib obod etilishi hamda voha bo'ylab urbanizatsiyalashgan dehqonchilik, qishloqlar va turar-joylar, keyinroq esa ko'plab qasrlarning qad ko'tarishi bilan uzviy bog'liq edi. Arxeologik ma'lumotlarga qaraganda Zarafshon vodiysining quyi oqimiga joylashgan, tevarak-atrofi cho'l va biyobonlar bilan o'ralgan Buxoroning qadimgi butazor, to'qayzor va nihoyatda sersuv yerlarining o'zlashtirilishi shubhasiz, bu diyorda dehqonchilik va chorvachilik xo'jaliklarining kengayib borishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Buxoro shahri endigina shakllanayotgan dehqonchilik vohasining markaziga aylangan. Arxeologlar tomonidan o'rganilishi natijasida qadimgi Buxoro dastlab Zarirud daryosining ikki sohilida joylashgan uchta mustaqil manzilgohlardan iborat bo'lgan. Ulardan biri daryoning o'ng sohilida, hozirgi Ark turgan yerda, qolgan ikkitasi daryoning har ikki tomonida bir – biriga ro'para, Masjidi Kalon, Minorayi Kalon, Mir Arab madrasasi, Timi Abdullaxon yo'nalishida, o'rta asr Buxoro shahristoni o'rnida joylashgan.<sup>5</sup>

IX – X asrlarda Buxoro Somoniylar davlatining siyosiy markazi bo'lib kelgan. Somoniylar bu shaharning qurilishiga, uning madaniy jihatdan taraqqiy etib gullab yashnashiga katta e'tibor berganlar va natijada hunarmandchilikning turli sohaları va tijorat ishlari bu shaharda ancha rivojlangan. Shuningdek, Buxoro IX – X asrlarda rabot (qishloq)larni o'z ichiga olgan va aholisi soni jihatidan ancha kengaygan shahar bo'lgan. Arab muallifi Abu Ishaq Ibrohim ibn Muhammad al-Farisi ai-Istahri (taxminan 919-957 yillar oralig'ida yashagan) o'zining "Kitob al-Masolik va-l-Mamolik" ("Yo'llar va mamlakatlar kitobi") da Buxoroni

<sup>2</sup> Отаҳўжаев А. Ғарбий Суғднинг суғориш тармоқлари билан боғлиқ атамалар хусусида // Ўзбекистон тарихи. 2005. – № 3. – Б. 3; Холматов Н.У. Мезолит и неолит Нижнего Зарафшана. – Ташкент: Фан, 2007. – С. 12-26.

<sup>3</sup> Мухаммаджонов А.Р. Қадимги Бухоро (Археологик лавҳалар ва тарих). – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 9.

<sup>4</sup> Очилов А.Т. Қуйи Зарафшонда тарихий жараёнлар ва қадимги антропоген ландшафтнинг ривожланиши (антик даврга қадар). Т.ф.ф.д.( PhD) дисс. автореферати. – Бухоро, 2022. – Б.11-12.

<sup>5</sup> Бухоро шарқ дурдонаси /муаллифлар жамоаси. – Тошкент: Шарқ, 1997.. – Б.22

Movarounnahr va Xurosondagi eng ko'p aholi yashaydigan shahar deb ta'kidlaydi. Unga ko'ra Buxoro aholisi asosan forsiy (tojik) va turkiy (o'zbek) xalqlaridan iborat bo'lgan. Shaharda arablar ham yashagan va ular islom dini kelishi bilan arab qo'shinlari tarkibida bu yerga kelib joylashgan. Muarrix Abu Bakr Muhammad ibn Jafar Narshaxiy esa o'zining asarida shaharning etnik tarkibi bir xilda bo'lmaganligini va aholi turli etnik guruhlardan: Sak va massaget qabilalari, Sug'diylar, forslar (tojiklar), turklar, arablardan iborat bo'lganligini, arablar kelgunga qadar sug'diylar va forsiylar uzoq vaqt davomida Buxoroning asosiy madaniy guruhi bo'lganligini ta'kidlaydi. Shuningdek, turkiy xalqlar to'g'risida gapirib, ularni Buxoroga Turkistondan kelib joylashganligini qayd etgan.<sup>6</sup>

Shahar aholisining katta qismi o'zbek va tojiklardan tashkil topgan bo'lsa-da, har ikkala aholi orasida "etnik-milliy mansublik" masalasida bir qolipdagi yagona tushuncha bo'lmay, ular "millat" deganda ko'proq diniy yoki regional mansublikdan kelib chiqqan, ya'ni mintaqaning islom diniga e'tiqod qiladigan turli xalqlari kabi o'zlarini "musulmon", "buxoroyi" ("buxorolik") deb atashgan. Aksariyat mahallalarda tojik tilli aholi o'zini "o'zbek" deb tanitib, "tojik" deganda "eroni" (shia mazhabidagi) larni tushunishlarini aytgan bo'lsalar-da, ulardan farqli o'laroq Buxoro mahallalarning katta bir qismi o'zlarini "tojik tilli" xalq deb atab kelgan<sup>7</sup>. Demak, Buxoro shahrining ayrim mahallalarida yashovchi tojik tilli aholi o'zini "o'zbek" deb atab, hatto o'zlari gaplashadigan tojikchani "o'zbekcha" deb nomlashgan. Boshqa bir mahallalardagi aholining bir qismini tojik tilli o'zbeklar va o'zbek tilida so'zlashuvchi o'zbeklar tashkil etgan holatlar ham uchratilgan. Masalan, Do'rman, Zindafil Ahmadi Hoji, Kosagaron, Mirakon, Iskandarxon mahallasida shunday holat kuzatilgan<sup>8</sup>. O.A.Suxarevaning tadqiqotlaridan ayon bo'ladiki, buxoroliklar "tojik" nomi ostida, asosan, eronlik shialarni tushunishgan, tojik tilli sunniy aholini esa ko'pincha "o'zbek" deb bilishgan. Buxoro mahallalari orasida aholi bilan olib borilgan suhbatlardan ayonki, Buxoro shahri mahallalarida yashovchi aholining katta bir qismi tojik tilida so'zlashib, o'zlarini "tojik" deb ataganliklari, qolgan bir qismi bo'lsa o'zlarini "o'zbek" deb atashgani ko'zga tashlanadi. Aholisi soni jihatidan ko'pchilikni tashkil qiluvchi ikkinchi xalq-ya'ni qadimiy o'troq turmush tarziga ega bo'lgan xalq bu tojiklar bo'lib, ular Buxoroning barcha tuman va shaharlarda boshqa xalqlar bilan birga yonma-yon, yaqin qo'shni bo'lib yashab kelib, bu yerda istiqomat qilib kelayotgan xalqlarning tili va madaniyatiga kuchli ta'sir qilganlar. Ayniqsa, o'zbeklar bilan bo'ladigan aloqalar rivojlanib borib, asta-sekin ular bilan assimilatsiyalashishi sababli o'zbek-tojik va tojik-o'zbek ikki tilining yuzaga kelishiga shart-sharoitlar yaratilib borgan<sup>9</sup>. Masalan, Buxoro shahridagi 60 xonadondan iborat Qo'sh-madrasa,

<sup>6</sup> Абу Бакр Мухаммад ибн Наршахий. Бухоро тарихи. Ўзбекистон ССР, ФАН нашриёти. – Тошкент: 1966. – 120 б.; Наршахий, Абу Бакр. Бухоро тарихи. Форс тилидан А.Расулов таржимаси. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б. 115-125

<sup>7</sup> Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодалного города Бухары (в связи с историей кварталов). – М. Наука, 1976. – С. 71, 126, 152, 160, 163, 166, 234

<sup>8</sup> Хамроев Ф.Ф.: Бухоро шаҳри маҳаллаларининг этник таркиби хусусида. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. Volume 3 Issue 5, Part 4 May 2023. – Б. 87 - 92

<sup>9</sup> Жумаев А.Ш. XIX асрнинг охири - XX аср бошларида Бухоро воҳасининг аҳолиси ва этник таркиби / Тарих фанининг долзарб муаммолари. –Тошкент.: 1994. – Б. 35-39

Labihovuz ansambli atrofida yashovchi aholi o'z etnik mansubligini shu tarzda ifodalab, "tojik" deganda forslarni tushunishini aytishgan. Murakkab etnik tarkibga ega bo'lgan Buxoro va u bilan qo'shni hududlarda uzluksiz davom etib kelgan assimillatsiya jarayonida o'zbek va tojiklar asosiy rol o'ynagan. O.A.Suxarevaning bergan yana bir ma'lumotiga ko'ra, buxoroliklar ayrim hollarda tojikcha so'zlashuvchi o'zbeklarni "tojikigo'y" yoki "forsigo'y", ona tili o'zbekcha bo'lganlarni esa "turkigo'y" deb ham atab kelishgan.

XX asr boshlarida o'zbeklar, tojiklar, qirg'izlar, qozoqlar, turkmanlar, qoraqalpoqlar Buxoro amirligi, Xiva xonligi va Turkiston o'lkasi hududlarida yashaganlar. Ushbu xalqlarning etnik konsolidatsiyasi\* bir xil bo'lmasa-da, ammo bu davrda ular to'liq shakllanib bo'lgan edi.<sup>10</sup> Buxoro amirligi Rossiya tarkibiga kiritilgandan so'ng bu yerda o'zaro urushlarga barham berilgan va savdo-sotiq rivojlana boshlagan, natijada esa shahar aholisi soni ko'paya borgan. Shuningdek, Buxoro amirligi hududida forsiylar, yahudiylar, hindlar, lo'lilar, afg'onlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar va qalmoqlar ham yashagan. Qalmoqlar Buxoro shahrida, qoraqalpoqlar esa Zarafshon, Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimlarida, qozoqlar esa Buxoro amirligining shimoli-sharqida, oz miqdorda Rossiya fuqaroligiga mansub bo'lgan, asosan savdo ishlari bilan mashg'ul bo'lgan tatarlar ham istiqomat qilganlar.

XX asrning birinchi yarmigacha Buxoro shahrida mavjud bo'lgan demografik holatni quyidagicha tahlil qilish mumkin: 1) Buxoroda mavjud bo'lgan 200 ta mahalla nomlarining katta qismini antroponimlar tashkil etib, ular diniy (xo'ja, eshon, hoji, shayx, mir, mullo) va boshqaruvchi toifalar (xon, amir, qushbegi, qozi, mehtar, dorug'o, mirzo), turli kasb-kor egalari (domullo, tabib), laqab va hokazo shaxs ismlaridan iborat bo'lgan; 2) Buxoro mahallalarining bir qismi etnonimlar asosida shakllangan bo'lib, ular orasida o'zbek urug'lari nomlari ko'pchilikni tashkil qilgan. Shuningdek, fors, arab, qozoq, qirg'iz, turkman kabi markaziy osiyolik xalqlar nomlari bilan bog'liq toponimlar ham uchraydi; 3) shahar mahalliy aholisining katta qismini o'zbek va tojiklar tashkil etib, o'zaro muloqot tili tojik tili bo'lgan. Shuningdek, Buxoro mahallalarining bir qismi forslar, yahudiylar, arablardan iborat bo'lgan va ular turkman, tatar, qozoq kabi nisbatan kamchilikni tashkil qiluvchi xonadonlar ham Buxoro shahri mahalliy aholisining tarkibiy bir qismini tashkil qilgan; 4) Buxorodagi mahalla nomlarining ko'pchiligi aholining xo'jalik hayoti, maishiy hayoti va kasb-kori bilan bog'liq holda yuzaga kelgan (Telpakfurushon, Sobungaron, Axtachi, So'zangaron, Pistashikanon, Degrezi, Govkushon, Charmgaron, Siyokaron, Mixchagaron va h.k.); 5) Ayrim mahallalar (Arroki misgaron, Nodir-vays, So'zangaron, Mag'g'oki attoron va h.k.) ning aholisi tojikcha so'zlashib, o'zlarini "tojik" deb hisoblashgan. Bu toifa aholining xo'jalik hayoti va kasb-korida ko'pincha hunarmandchilik ustuvor bo'lib, asosan misgarlik, duradgorlik, novvoylik, bo'yoqchilik, turli buyumlar yasash, tijorat va hokazolar bilan shug'ullanishgan.

---

<sup>10</sup> Асрор Қаюмов: XX аср бошарида Ўзбекистон худудида этник ҳолат. Т.: "Адабиёт учкунлари". 2015. – Б. 22

XX asrning 20 – yillaridan Turkiston o'lkasi aholisining milliy, etnik tarkibini o'rganish ishlari jadal sur'atda boshlab yuborildi. XX asrning 30 – yillari oxiri va 40-50 yillarda O'rta Osiyo aholisining etnik tarkibi masalasi bilan nafaqat tarixchi-etnograflar, balki tilshunoslar, antropologlar ham qiziqqa boshladi.

XX asrning 50 – yillari oxiri va 60-80 yillarda bu masalasiga etnograflar O.A.Suxareva, B.X.Karmisheva, K.Sh.Shoniyozov, S.S.Gubayeva, H.Ismoilovlar tomonidan chuqur tahlil va tadqiq etilib, alohida e'tibor qaratildi. Elshunos olim A.Ashirov e'tirof etishicha: “O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixini tadqiq qilish bo'yicha ko'pgina ilmiy ishlar U.Abdullayev, O.Bo'riyev, A.Malikov, A.Qayumov, A.Qurbonov, M.Usmonov, N.Tursunovlar tomonidan olib borilgan bo'lsa-da, ammo Buxoro vohasi etnik tarkibini o'rganish bo'yicha va o'rganilishi lozim bo'lgan ilmiy masalalar juda ko'p bo'lib, bu masalalar kelajakda anchagina tadqiqotlarni talab qiladi. Ayniqsa, XX asrdan boshlab bugungi kungacha bo'lgan davr nuqtai nazaridan yoritilish muhim ilmiy ahamiyatga ega”.<sup>11</sup>

Xullas, mustaqillik yillarida etnogenez va etnik tarix borasida, aholi turmush tarzi, madaniyati borasida O'zbekiston olimlarining kompleks ilmiy tadqiqotlari hamda jahonning ilg'or ilmiy markazlari bilan hamkorligi natijasida avtohton etnos bilan turkiy komponentlar etnomadaniy aloqadorligining qadimiyligi borasida muhim ilmiy yutuqlar qo'lga kiritildi. XX asr ikkinchi yarmi va XXI asrning ortda qolgan yillarida jahonda urbanizatsiya jarayonlari juda tez kechdi. Aholining shaharlarga ko'chib o'tishi va tabiiy o'sish shaharning kengayishiga, aholi sonining keskin ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

Birinchi bobning “*Tadqiqot mavzusining manbashunosligi va tarixshunosligi*” deb nomlangan ikkinchi paragrafida mavzuga doir manbalar tahlili va olib borilgan tadqiqotlar tarixi bayon qilingan.

Tadqiqot jarayonida shu mavzuga bevosita taalluqli bo'lgan manba va adabiyotlar to'rt guruhga bo'lib tadqiq qilindi:

- 1) o'rta asrlar yozma manbalari va adabiyotlari;
- 2) Sovet davri tadqiqotlari;
- 3) Mustaqillik yillaridagi tadqiqotlar;
- 4) Xorij olimlarining asarlari.

Birinchi guruh adabiyotlarini o'rta asr yozma manbalari: : “Qur'oni karim”, “Hadis” larda, qadimgi turkiy bitiklar va so'g'diy yozuvlar, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, Abu Bakr Narshaxiyning “Buxoro tarixi”, Abulg'oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk”, Mirzo Ulug'bekning “To'rt ulus tarixi”, Muhammad Solihning “Shayboniynoma”, Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'atit turk”, kabi manbalar mavzuni mazmunli yoritishda xizmat qiladi. Ushbu mualliflar tomonidan yozib qoldirilgan ma'lumotlar qisqa tavsifiy xususiyatga ega bo'lib, Buxoro shahri o'zbek va tojiklari an'anaviy sayillari, bayramlari, xalq o'yinlari va tomoshalari tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Bu manbalar, tarixiy asarlar tadqiqotning nazariy-metodologik asoslarini yoritib berishda muhim ahamiyatga ega. Mahmud

---

<sup>11</sup> Аширов А.А. Замонавий ўзбек этнологияси: ютуқлар, муаммолар ва ривожланиш истиқболлари. // Марказий Осиёда анъанавий ва замонавий этномаданий жараёнлар.м – 1 – қисм. Тошкент, 2005. – Б. 36

Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'otit turk" asarida 150 ga yaqin milliy o'yinlar va 20 dan ortiq bolalar o'yini tavsif qilingan. Umar Xayyom "Navro'znoma" sida bu ayyomning nishonlanishi podshoh Jamshid davrida boshlanganini aytib o'tadi. "Kimki Navro'z kuni bayram qilib quvonsa, keyingi Navro'zgacha hurrām bo'ladi va farog'atda yashaydi",<sup>12</sup> - deb yozadi Umar Xayyom. Firdavsiyning "Shohnoma" dostonida Navro'zni xalq qahramoni Siyovush shaxsi bilan bog'langan bo'lib, unda Siyovushning o'limidan keyin, Buxoro otashparastlari uning qabri joylashgan maskanni aziz bilishib ziyorat qilishgan va har yili bir marta xo'roz so'yishgan. Bu esa odat tusiga kirgan va Navro'z bayrami Buxoro aholisi orasida nishonlanishiga sabab bo'lgan.

*Ikkinchi guruh* adabiyotlariga XX asrning 20 – yillarida o'zbek etnografiyasi, etnogenezi, xo'jaligi, oilaviy turmush tarzini o'rganishda Y.Polivanov, L.Potapov, G.Golser, F.Gavrilov, A.Troitskaya, A.Borovkovlar va ular bilan birgalikda mahalliy tadqiqotchilardan Sh.N.Inog'omov, M.Bekjonova, G.Mirg'iyosov, M.Yusupovlarning xizmatlari katta bo'lgan. 1930-yillarda esa A.Semyonov, L.Oshanin, K.Trever, Y.G'ulomov, R.Nabiyevlar izlanishlar olib borgan. XX asrning 20 – yillaridan Turkiston o'lkasi aholisining milliy, etnik tarkibini o'rganish ishlari jadal sur'atda boshlab yuborildi. Lekin bu asarlarda sovet mafkurasi ta'siri sezilib turadi.

Uchinchi guruhga mustaqillik yillarida nashr etilgan asarlar, risolalar, monografiyalar foydalanildi. Ayniqsa, O. Safarov, T. Mirzayev, B.Sarimsoqov, M.Jo'rayev, D.O'rayeva, K.Shoniyozov, I.Jabborov, A.Asqarov, A.Doniyorov, A.Qayumov, O.Bo'riyev, U.Abdullayev, A.Ashirov, S.Davlatova, U.Qoraboyev, I.Jalilov, A.Sh.Jumayev, M.Qurbonova, Q.Jumayev, R.Balliyeva, Z.Kurbanova, M.Karlibaev, S.Matkarimova, N.Matkarimova M. R.Qilichev, Sh.Bobojonov, X.Nafiddinova va boshqa soha olimlarining ishlari tadqiq etilib, qiyosiy tahlil qilindi.

I.Jabborovning "O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati" nomli o'quv qo'llanmasida ham bayramlarga oid qimmatli va e'tiborga molik fikrlar mavjud. Folklorshunos olim M.Jo'rayev ham olib borgan ko'plab tadqiqotlarida o'zbeklarning an'anaviy xalq bayramlariga oid bir qancha ma'lumotlarni o'z asarlari, monografiyalarida yozib qoldirgan. Ularda o'zbeklarning samoviy tasavvurlari, mavsumiy marosimlar – qishki, bahorgi, yozgi va kuzgi hamda chorvachilik marosimlari folklorining janrlar tarkibi atroflicha yoritilgan. O'ttizdan ortiq monografiya va kitoblar muallifi, filologiya fanlari doktori, professor M. Jo'rayev "O'zbek mavsumiy marosim folklori", "Marosimnoma" nomli kitoblarida birgina bahor faslida o'tkazilgan udum va marosimlarni viloyatlar, shaharlar, tuman va mahallalar kesimida o'rganib aks ettirgan.<sup>13</sup>

Faylasuf olim U.Qoraboyev o'zbek xalqi bayramlari tarixi hamda rivojlanish bosqichlariga bag'ishlangan tadqiqotni amalga oshirdi. Jumladan, Navro'z,

<sup>12</sup> Умар Хайём. Наврўзнома, "Меҳнат". 1990. С.54

<sup>13</sup> Жўраев М.: "Қизил гул" сайлининг этнофольклористик таҳлиliga доир. –Ўзбек тили ва адабиёти.- № 4. - Тошкент:2003. - Б.13-19;Жўраев М. Наврўз байрами. –Тошкент: Фан,2009. –230 б.;Жўраев М. Ўзбек мавсумий маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 2008. – 290 б.; Жўраев М., Нарзикулова М.: Миф, фольклор ва адабиёт. – Тошкент: "Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти", 2006 – 184 б

Mexrjon, turli xil sayillar (suv, gul, qovun...) ning turli davrlarda qay darajada, qanday ko‘rinishda nishonlanganligiga e’tibor qaratadi.<sup>14</sup>U o‘zining “O‘zbek xalqi bayramlari” nomli kitobida O‘zbekiston bayramlari va tabiat kultiga aloqador marosimlar, tabiat bilan bog‘liq an’anaviy xalq bayramlarining o‘tkazilish tartibi va kelib chiqish tarixi to‘g‘risida ma’lumot berib: uni to‘rt qismga bo‘lib tahlil qiladi. Kitobning birinchi qismida “Bayramlarning nazariy asoslari, tushuncha va mohiyati, asosiy xususiyatlari, o‘zbek xalqi bayramlarini o‘rganish zaruriyati”ga, ikkinchi qismi o‘zbek xalqi bayramlariga bag‘ishlangan. Unda o‘zbek xalqi bayramlarining eng qadimgi davridan hozirgi kungacha bo‘lgan taraqqiyot davri, zamonaviy ko‘rinishi xronologik nuqtai nazardan o‘rganilib, tasvirlangan. Uchinchi qismi an’anaviy xalq bayramlariga, ya’ni nishonlanib kelinayotgan o‘zbek bayramlarining asosiy turlariga bag‘ishlangan bo‘lib, kitobning bu qismida Usmon Qoraboyev bayramlarni uch guruhga bo‘lib o‘rganadi: Birinchi guruh “Mavsumiy bayramlar” deb nomlanib, unda bahorgi: Navro‘z, Sumalak sayli, Gullar sayillari; yozgi: Suv sayli, Tut sayli, Qum sayli; kuzgi: Mehrjon, Qovun sayli, Uzum sayli, Anor sayli, Anjir sayli, Hosil bayrami (Hosil to‘yi), qishki: Birinchi qor (Qor xati), Yaldo kechasi va qishki chilla, Gap-gashtak singari marosimlar, bayramlar o‘rganilgan. Ikkinchi guruhga o‘zbek oilaviy marosimlariga bag‘ishlangan bo‘lib, chaqaloq dunyoga kelgan kundan boshlab, “Besh kecha”, “Beshik to‘yi” dan, ulg‘ayib qariguncha bo‘lgan yillar mobaynida, ya’ni oltin-olmos to‘ylarini nishonlanadigan qariyalar bayramlari to‘g‘risida fikr yuritadi. Uchinchi guruhga diniy bayramlar va ularning asosiy turlari: Ro‘za hayiti, Qurbon hayiti, Laylat ul-qadr, Mavlud, Ashuro, “Xatmi qur‘on” ning o‘tkazilish tartibi tatqiq etiladi. Kitobning to‘rtinchi qismida esa zamonaviy bayramlar – Mustaqillik bayrami, Navro‘z bayrami, Konstitutsiya kuni, Yangi yil bayrami, Vatan himoyachilari kuni, Xalqaro xotin-qizlar bayrami, Xotira va qadrlash kuni, O‘qituvchi va murabbiylar kuni bayramlari to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.<sup>15</sup>

Tadqiqotning *to‘rtinchi guruhiga* oid xorijiy tadqiqotchilar ishlarining umumiy tahlili bayramlar, sayillar va tomoshalarga doir ma’lumotlarning ko‘pligini ko‘rsatsa-da, “Buxoro shahri o‘zbek va tojiklari an’anaviy sayillari, bayramlari va tomoshalaridagi transformatsiya jarayonlari” maxsus ilmiy muammo tarzida o‘rganilmagan. Abbos Qulixon “Safarnomayi Buxoro (Amir Nasrulloh va Muhammadshoh Qojar o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarga doir, 1844)” asari 1844-yil Eron hukmdori Muhammadshoh Qojar tomonidan Buxoro amiri Nasrullohxon huzuriga elchi bo‘lib kelgan Abbos Qulixonning xotiralari, to‘plagan ma’lumotlari asosida yozilgan. ushbu asarning So‘zboshi bo‘limida, o‘sha paytda qutqarib qolingan J.Volfning 1844-yilda Angliyaga keliboq o‘z xotiralarini yozgan va uni 1845-yilda Nyu Yorkda chop ettirganligini yozadi. Keyinchalik, qarasam, deb yozadi tarjimon, 1863-yilda Xiva va Buxoro, Samarqandga darvish qiyofasida safar qilgan vengriyalik olim H.Vamberi ham o‘zining “O‘rta Osiyo bo‘ylab sayohat” asarida o‘sha davr kitobxonlariga ayrim ma’lumotlar tafsilotini J.Volf

<sup>14</sup> Қорабоев У.: Ўзбек халқи байрамлари. - Тошкент: Шарк, 2002. – Б. 240

<sup>15</sup> Қорабоев У.: Ўзбек халқ байрамлари/. Т.:”Шарк”. 2002. – Б. 240



“Sayil” so’zi – arabcha so’zdan olingan bo’lib sayr ma’nosini anglatadi. Sayillar odatda yilning ma’lum fasllarida kishilar tomonidan ochiq maydonlarda, soya-salqin joylarda uyushtirilgan va sayillarni tashkil etgan kishilarni ilgari tashabbuskor kishilar deyishgan bo’lsalar, keyinchalik bu vazifa rejissiyorlar zimmasiga yuklatilgan. Sayillar shaharlarda, Registon maydonlarida, chorsu va rastalarda, shahar tashqarisidagi sayilgohlarda, shuningdek, qadamjolarida o’tkazilgan va bir-ikki hafta davom etgan.<sup>21</sup> Tarixiy manbalarda ko’rsatilishicha, navro’z arafasida Buxoroda “qizil gul sayli” (Sayli guli surx) bayrami o’tkazilgan. Bu sayil Navro’ziy an’ana sifatida aprelning boshlaridan mayning o’rtalarigacha davom etgan, lekin dastlabki qizg’in davri boshlang’ich qismidagi ikki hafta hisoblangan. “Qizil gul” sayili bo’yicha A.Hamroyev, O.A.Suxareva, G.P.Snesarev, N.P.Lobacheva, M.Jo’rayev, T.Qilichev, M.V.Sazonovalar\* tadqiqot olib borgan. “Gul sayli”, “Gul bayrami” nafaqat Namangan, Xorazm, Buxoroda balki dunyoning ko’plam mamlakatlarida ham nishonlanib kelmoqda. Fransiyada har yili 1 mayda “Landish (qo’ng’iroqgul)” bayrami nishonlansa, Jenevada “Atirgul bayrami”, Lyuterda “Narsiss (nilufargul bayrami)”, Lozaniyada “Kameliya bayrami” nishonlanib kelmoqda. “Qizil gul” bayramini o’zbek, tojik, turkmanlar bilan birga qoraqalpoq xalqi ham nishonlaganligini etnograf olimlar, N.P.Lobacheva, O.A.Suxareva va T.Qilichevlar bilan bir qatorda Mariya Vasilyevna Sazonova ham o’rgangan. T.Qilichev esa 1976–1977 yillarda Beruniy va Ellikqal’a tumanlarida olib borgan tadqiqotlari natijasida, etnofolkloristik ma’lumotlar to’plagan.

Navro’z arafasida tashkil etilgan yana bir sayil bu sumalak sayli bo’lib, Buxoro shahrining barcha joylarida (Somoniyalar parkida, Labi hovuz ansambli oldida, Buxoro anfitratrida - dissertant) o’tkazilgan. Shuningdek, Navro’z va diniy bayramlar (Ro’za va Qurbon hayitlari)da, yilning qulay paytlarida ham ko’plab sayillar tashkil etilgan. Sayilgohlarda oshxona, choyxona, nonvoyxonalar qurilgan, meva-cheva, attorlik, baqqollik do’konlari ochilgan. Poyga, uloq, ko’pkari, kurash, chavgon musobaqalari, darvoz, hofiz, sozanda, raqqos, masharaboz, qiziqchilarning chiqishlari, ayiq, ilon o’yinlari, tuya, qo’chqor, xo’roz, it urishtirish, mushakbozlik tomoshalari ko’rsatilgan.

Navro’z 3-3,5 ming yillar ilgari paydo bo’lgan bo’lib, asrlar davomida yangicha qarashlar va an’analar bilan boyib bordi. Shu bilan birga uning tarkibida ajdodlarimizning qadimgi mifologik tasavvurlari va hayot tarzi bilan aloqador marosim va urf-odatlar ham saqlanib qoldi. Navro’z bayrami qadimdan hozirgi kungacha katta omma orasida ommaviy xalq sayillari, milliy o’yinlari, sozandayu va raqqosalarning chiqishlari, masxaraboz va dorbozlarning ishtirokisiz o’tmagan. Bu bayram shaharning sharqiy qismida joylashgan Shirbudin saroyi chorbog’ida tashkil etilgan bo’lib, chorbog’da bayram arafasida sayillar o’yinlar va turli xil tomoshalar, milliy kurash va musabaqalar o’tkazilgan. 80 – yillar o’rtalarida Navro’z sun’iy tarzda "Navbahor" bayramiga aylantirildi. O’zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan "Navro’z" bayramini umumxalq shodiyonasiga aylantirish borasida bir qator tadbirlar ko’rildi. 1991-yildan boshlab mamlakatda Prezident

<sup>21</sup> Ихтиёр Жалилов: Ўзбек халқи анъанавий байрамлари, сайиллари ва ўйинлари. Қарши."Насаф".2005.- Б .28

Farmoniga ko‘ra, 21-mart – Navro‘z umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan bo‘ldi. Sayillar davomida Shirbudun saroyida 500 tacha chodir qad ko‘targan. Savdogar o‘z mahsulotlari bilan tashrif buyurgan.<sup>22</sup> Sayillar Navro‘z, diniy bayramlar (Ro‘za va Qurbon hayitlari) da qulay bo‘lgan paytlarda tashabbuskor, havaskor kishilar tomonidan tashkil etilgan<sup>23</sup>. Buxoro shahrida bunday sayillar bayramlar arafasida Ark, Labihovuz majmuasi, guzarlar, mahallalar atrofida, shahar tashqarisidagi sayilgohlarda, shuningdek, qadamjolarida o‘tkazilib, bir, ikki hafta davom etgan. Buxoro shahri aholisi ommaviy sayillarga chiqishni xush ko‘rgan. Sayillarda tashkil etilgan baxshilar aytishuvi, laparlar, hazil mutoyibalar, qo‘shiqlar, xalq termalari, askiyalar kishilar diqqatini o‘ziga jalb qilib kayfiyatini ko‘tarishi bilan birga, dorbozlar o‘yini, qo‘g‘irchoqbozlarning o‘ynatgan qo‘g‘irchoqlari bayram va sayillarga tashrif buyurganlarga yanada quvonch baxsh etgan. Shahar tashqarisida esa katta sayillar tashkil etilgan. Katta sayillar – uloq chopish, ot poygasi, kurash, merganlik kabi tomoshalar o‘tkazilgan. Hozirga davrda ham shu an‘ana davom ettirilib, shahar va uning atrofidagi hududlarda Navro‘z arafasida mahalla fuqarolar yig‘ini raisi, oqsoqollar, faollar bilan birgalikda, korxonayu tashkilotlar rahbarlari, hokimliklar, jamoat tashkilotlari vakillari maslahatlashib, har bir mahallada bayram tantanalarini tartibli hamda uyushqoqlik bilan o‘tkazishga bosh-qosh bo‘ladigan sayilboshilarni tayinlaydilar va tabiat qo‘ynida, ochiq maydonlarda, xiyobon hamda sayilgohlarda o‘tkazilishi mo‘ljallangan bayram sayili va teatrlashtirilgan tomoshalarining dasturlari ishlab chiqilib, mas‘ullar belgilanadi. Navro‘z Buxoroda bir oygacha nishonlanadi va bu bayram yana bayramga ulanib ketgan. Undan so‘ng “Gul sayillari”, “Suv sayili”, “Uzum sayili”, “Hosil bayrami”, “Qovun sayili” va “Yangi yil bayrami” bilan bir-biriga ulanib ketgan.

Yoz oyida nishonlanadigan “Suv sayili”-“Angom bayrami” O‘rta Osiyo iqlimi sharoitida suvga bo‘lgan tabiiy ehtiyoj asosida shakllangan. Hayotimiz davomida bugun ham suvga bo‘lgan ehtiyojning oshib borishi va davlat ahamiyati darajasida muammo sifatida ko‘tarilishi natijasida "Suv hayot manbai", suvni behuda isrof qilmaslik borasida olib borilayotgan targ‘ibot tashviiqot ishlari amalga oshirilib, suv tanqisligini oldini olish maqsadida suv sayili tashkil etildi. “Qovun sayili” O‘zbekistondagi hosil bayramlari ichida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, poliz mahsulotlari pishgach, avgust oyining oxirgi kunlarida nishonlanadi. Xuddi shunday sayilni Buxoroda 1996 yildan tashkil etish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, respublikamizning turli yerlaridan bu sayilga “Ko‘kcha”, “Amiri”, “Novvoti”, “Bo‘rikalla”, “Kampirchopon”, “Dahbedi”, “Sherozi”, “Toshloqi”, “Gulobi”, “Barginay” kabi o‘ttizga yaqin qovun navlari keltirilgan. 2020 yil 6 avgustda Buxoro shahrida o‘tkazilgan qovun sayili “Buxoro shahri an‘anaviy XXIV qovun sayili” bayrami deb nomlangan.

Kuzgi bayramlar orasida Mehrjon (Mehrjon) bayrami, ayniqsa, tantanali nishonlangan. Shubhasiz, barcha bayramlar teatrlashtirilgan, o‘yin-kulgi, marosimlar, namoyishlar, tomosha va xalq sayillari raqs bilan uyg‘unlashtirilgan

<sup>22</sup> Л.И. Ремпель: Далёкое и близкое: Страницы жизни, быта, строительного дела ремесла и искусства Старой Бухары // Сайль в Бухаре. Маддохи. - С. 63

<sup>23</sup> Ўзбек миллий энциклопедияси: “Сайиллар”. 7-том. Тошкент.2001. – Б. 428-429

holda o'tkazilgan. Umumxalq bayramlarini nishonlash uchun shahar maydonlari va shahardan tashqarida maxsus joylar ajratilgan, asosan, Shirbudin sayilgohida uyushtirilgan. Bayramlarda sozanda va xonandalardan tashqari dorbozlar, masxarabozlar, romchilar ham o'z san'atlarini namoyish etishgan. Sozanda va xonandalarning barcha chiqishlari bayramlar an'alarini saqlovchi korfarmonlar va bakovullar tomonidan tashkil etilgan hamda boshqarilgan.

Mustaqillik yillarida bayramlar, sayillar, marosimlarni o'rganish boshlandi. Lekin shunday bo'lsada, o'zbek xalqi bayramlari, an'analari va ularning hozirgi ko'rinishi, o'tkazilish tartibi atroflicha o'rganilmadi. Ayniqsa, Buxoro shahri va uning atrofidagi hududlarda o'tkazilib kelingan sayillar, bayramlar va tomoshalar maqolalar sifatida chop qilingan bo'lsa-da, biroq ular tarixchi, etnolog, filolog, faylasuf, mahalliy va xorijiy sayyohlar, kitobxon talabalar mustaqil izlanuvchilar, tadqiqotchilar uchun qo'llanma sifatida yoritilmagan. Navro'z 2009 yilda YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. Shuningdek, Hunarmandlar festivali: 2016 yildan boshlab har yili may oyida "Ipak va ziravorlar festivali", "Xalqaro zardo'zlik va zargarlik festivali" keng ko'lamda o'tkazilib kelinmoqda. 2022 yilda Buxoro shahriga "Jahon hunarmandlar shahri" maqomining berilishi shahar hunarmandchilikning yanada rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Xulosa qiladigan bo'lgan, O'zbekiston mustaqilligidan so'ng xalq sayillari mazmunan o'zgarib, ko'proq milliy tus olib bordi. Umumxalq bayramlari: Mustaqillik kuni, O'qituvchilar va murabbiylar kuni, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kunlarida ham sayillar uyushtirilib kelinmoqda. Buxoro shahrida o'tkazilib kelinayotgan sayillar, bayramlar, festivallar shaharning boy madaniy merosini saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi paragraf "*An'anaviy bayramlardagi transformasiyalar*" deb nomlangan bo'lib, an'anaviy bayramlar va yangi an'analari, bayramlarning bugungi ko'rinishi to'g'risida fikr yuritiladi. XX asrda an'anaviy o'zbek xalq bayramlari bir qancha sinovlarga bardosh berib, shu mobaynida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni engib o'tdi. Natijada an'anaviy bayramlar safiga yangi bayramlar qo'shildi. O'zbekistonda Sovet hokimiyati mustamlakachilik siyosati davri yillaridagi bayramlar taraqqiyotiga nazar soladigan bo'lsak, bir-biri bilan bog'liq yaqqol ikki yo'nalishning vujudga kelganini sezish mumkin: 1. An'anaviy xalq progressiv bayramlarining (zamonga mos) taraqqiy ettirish; 2. Xalqaro bayramlarni hayotga tadbiiq etish va taraqqiy ettirish. Birinchi yo'nalishda o'zbek xalqi uchun qadim zamonlardan munosib bo'lgan milliy marosimlar - bayramlar ("Navro'z", "Lola sayli", "qovun sayli", "Uzum sayli" kabilarni)ni yangi mazmun bilan rivojlantirish nazarda tutilsa, ikkinchi yo'nalishda esa butun dunyo xalqlarining kurashi va mehnati jarayonida vujudga kelgan bayramlarni (1 yanvar - yangi yil, 8 Mart - xalqaro xotin-qizlar kuni, 1- may mehnatkashlarning xalqaro birdamlik kuni, 9 May - g'alaba kuni, 7 noyabr - Oktyabr inqilobi kuni, Paxta bayrami kabilarni) o'zbek xalqi hayotida milliy va mahalliy xususiyatlarini hisobga olib tashkil qilish ko'zda tutildi. Undagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarining taraqqiy etishi bayramlar rivojiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada, zamon talabiga muvofiq yangi-yangi bayramlar vujudga keldi. Shuningdek, o'zbek xalqi ijtimoiy-madaniy hayotining o'zgarishi va yangi sohalar paydo bo'lishi natijasida

mehnat, tabiat, madaniyat, sport, oilaviy-shaxsiy bayramlar yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Yurtimiz mustaqil bo'lgan kundan boshlab nishonlanib kelinayotgan yana bir bayram – bu Hayitdir. Hayit bu arabcha iyd – bayram degan ma'noni anglatib, musulmonlarning diniy bayrami hisoblanadi va ikkita Hayit: Ramazon hayiti va Qurbon hayitini rasman diniy bayram sifatida nishonlanishiga alohida e'tibor berilmoqda. Har yili ramazon oyida islom diniga e'tiqod qiluvchilar 30 kun davomida ro'za tutishadi. Ro'za tutganlarni uylariga chaqirib dasturxon yozish, ularga taom pishirib berish savob hisoblanib, "Iftorlik", "Iftorlik dasturxonini" yozish odat tusini olgan. Og'iz ochar payti bo'lganidan so'ng 30 kun yosh bolalar ramazon aytishadi. Qadim zamonlarda ramazon aytish o'spirin yigitlar zimmasida bo'lgan. Qishloq yo shahar ko'chasining o'rtasida yakkaxon qo'shiqchi atrofida 3-4 nafar bola yig'ilib odamlar darvozasi oldida ramazon qo'shig'ini aytgan.<sup>24</sup>

*Qurbon hayiti* yoki Iyd al-Adha arabcha so'zdan olingan bo'lib, qurbonlik bayrami degan ma'noni bildiradi. Ro'za hayiti bayramidan 70 kun o'tgach, Zulhijja oyining 10-kunida, Hajning tugashi vaqtida nishonlanadigan islomiy bayram. Qurbon hayitidan oldingi kun *Arafa kuni* deb ataladi.

Xullas, bayramlar o'z-o'zidan an'anaviy bayram bo'lib qolmaydi. Uni tashkil etish uchun avvalo ularning shakllanish tarixidan xabardor bo'lish muhimdir. Yuqorida aytib o'tilgan bayramlar bugun o'z ahamiyatini yo'qotmay, mustaqillik sabab yangidan tiklandi, rivojlandi, transformasiyalandi va xalqimiz orasida shahar va uning atrofidagi hududlarda yangicha, zamonaviy ko'rinishda nishonlanib kelinmoqda. Bugun bayramlar soni ancha ko'payib, ular doirasi kengayib borayotganligini maktab hayotida ham ko'rishimiz mumkin. Shartli ravishda maktablarda o'tkaziladigan bayramlarni esa quyidagilarga bo'lamiz: Birinchidan, maktab hayotiga oid bo'lgan an'anaviy bayramlar bo'lib, ular: "Birinchil qo'ng'iroq (Bilimlar kuni)", "O'qituvchilar va murabbiylar kuni", "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun", "Vatan himoyachilari kuni", "Buyuk siymolar tavallud topgan kun", "Onajonlar bayrami", "Xotira va qadrlash kuni", "So'nggi qo'ng'iroq", "Bitiruvchilar kechasi". Ikkinchidan, milliy xalq an'analari bayramlari bo'lib, ular "Navro'z", "Mustaqillik kuni", "Hosil bayrami", "Gul sayli", "Qovun sayli", "Qushlar bayrami" kabi mehnat va tabiat bayramlaridir. Shunday ekan, bayramlar o'z-o'zidan bayram shaklida yuzaga kelmaydi va ularni xoxlagan yerda nishonlab bo'lmaydi. Kishilar imkoniyatini hisobga olib, zamon talablaridan kelib chiqqan holda, milliylik, urf-odat, an'analarga amal qilgan holda, mavzu va g'oya uyg'unligida tashkil etilgan har qanday bayram va tomoshalar yuqori darajada o'tkazilgan bayramlardan hisoblanadi.

Bunday bayramlar:

-birinchidan, xalqimizning mehnat faoliyati bilan bog'lanib kelgan yorqin va ko'p qirrali intilishlariga, orzu – umidlariga asoslanganidir;

-ikkinchidan, xalqning turmush tarzi, milliy ruhi, xalq san'atining ajoyib shakllari va turlari, turli musobaqalar bilan e'tiborni jalb etuvchi bu bayram

---

<sup>24</sup> Dala yozuvlari: Buxoro shaharida bo'layotgan festivalda suhbat jarayonida yozib olindi. 2022 yil

xalqning ma'naviy turmushini boyitishga, yangilashga, xalqimizning go'zal an'alarini saqlashga xizmat qilmoqda;

-uchinchidan, bayramlar, sayillarni o'tkazish, tomoshalarni tashkil etish yosh avlodni tarbiyalashda, xalqimiz ijodiyotining eng yaxshi namunalari misolida ular dunyoqarashini shakllantirishda, milliy o'zlikni anglashda katta ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Shahar o'zbeklari va tojiklari milliy o'yinlari va tomoshalaridagi transformatsiya jarayonlari”** deb nomlangan bo'lib, **“Shahar aholisi o'zbek va tojiklari milliy o'yinlaridagi transformatsiya jarayonlari”** deb nomlangan birinchi paragrafida xalqimiz orasida nishonlanib kelinayotgan bayramlar, sayillar va tomoshalarni xalq milliy o'yinlarisiz tasavvur etib bo'lmazligi bayon etilgan. Zero bolalar va o'smirlarni sog'lom, baquvvat qilib tarbiyalashda milliy o'yinlarimizning o'z o'rnini bor. Bu o'yinlar bolalarni yoshligidan mustaqil, erkin fikrlashga, o'ziga bo'lgan ishonchni yo'qotmasligiga, sog'lom, baquvvat bo'lib o'sishiga ko'maklashgan va xalq o'yinlari sifatida shakllanib, rivojlanib borgan. Shahar aholisi o'zbek va tojiklari xalq milliy o'yinlari: birinchidan, bu o'yinlar — ajdodlarimizning eng qadimiy tarixiy qadriyati, ko'pgina madaniyati shakllari chashmasi - raqs, teatr, sport, marosimlar kabilar aynan o'yinlar zaminida kelib chiqqan va tarixiy jarayonlarda o'yinlar sog'lomlashtiruvchi vositasi bo'lib kelgan; ikkinchidan, ota-bobolarimiz xalq o'yinlari va musobaqalari yordamida aqlan raso, ruhan tetik, jismonan baquvvat, sog'lom bo'lib kelgan. Bugungi kunda mana shunday xalq o'yinlari mahallalarda bayram va sayillarda tashkillashtirilib kelinmoqda. Bolalar o'yinlari haqidagi ma'lumotlar Maxmud Qoshg'ariy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Zahridin Muhammad Bobur singari allomalar asarlarida uchraydi. Bolalar va o'smirlar orasida o'ynalib kelinayotgan o'yinlardan ovchilik o'yinlari – “Oshiq”, “Xappak tosh”, “Lanka”, “Ko'z bog'lar”, dehqonchilik o'yinlaridan - “Qo'riqchi”, taqlidiy o'yinlardan - “Kim oladi – yo shuginani-yo”, “Xo'roz urishtirish”, harakatli o'yinlardan-“Halinchak (alvonch)”, “Besh tosh”, “Laylak uchdi”, “Kim topdi”, “Bekinmashoq”, “Quvlashmashoq”, so'z harakatli o'yinlarida “Oq terami-ko'k terak”, “Topgan topaloq”, “Arqon tortish”, kurash va musabaqa shaklidagi o'yinlar-“Milliy kurash”, “Yelkada kurash”, “Bel olish kurashi” bayramlar va tomoshalarining asosiy qismini tashkil etib kelmoqda.

*Kurash* – xalqimizning qadimiy o'yinlaridan biri, uch yarim ming yillik tarixga ega o'zbekcha so'z bo'lib, bugungi kunda sportning jahon miqyosida tarqalgan va xalqaro musabaqa turlaridan biridir. Xalqimiz orasida kurashning ikki turi mavjud bo'lib: farg'onacha kurash va buxoroacha kurash deb yuritiladi. Bu kurash hozirgi kungacha sportning maxsus turi sifatida rivojlanib kelmoqda va bu musobaqani o'zbeklar “Kurash”, tojiklar “Gushtingari”, “Гүштін” (Gushtin yoki Gushti), qozoq va qirg'izlar “Kures”, turkmanlar “Göreş” yoki “Goresh”, qoraqalpoqlar “Küreş” (yoki “kuresh”) deb ataydilar. Xalq o'yinlari orasida tabiat bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar ko'plab uchraydi, ayniqsa sanalgan qushlar bilan bog'liq o'yinlar hozirgi kungacha ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan: o'zbeklarda “Laylak uchdi”, tojiklarda “Laylak parid”, turkmanlarda “Leylek uchdy”, qoraqalpoqlarda “Leylek ushti”, “Leylek”, qarshiliklarda “Laylak keldi” deb

atalsada, o'yinning o'ynash qoidasi deyarli bir xil bo'lib, bolalardan diqqatni jamlashni va tezkorlikni talab qiladi. Varrak o'yinlari ham erta bahor boshlanishi bilan bolalar tomonidan eng ko'p o'ynaladigan o'yinlardan sanaladi. Shaharda istiqomat qiluvchi barcha aholi orasida shu nom bilan uchraydi va shamolli kunlarda uchirishadi, hatto "kimning varragi baland uchadi, tez uchadi"- deya musobaqalar ham tashkil etishadi.

Xalq milliy o'yinlarini: dehqonchilik bilan bog'liq o'yinlar: "Sust xotin", "Qo'g'irchoq", "Oq terakmi-ko'k terak", "Sholg'om tortish", "Laylak uchdi"; Chorvachilik bilan bog'liq o'yinlar: "Kamon-kamon", "Eshak mindi", "Oshiq o'yini", "To'piq o'yini", "Lanka", "Chovgon", "Uloq (ko'pkari)", "Ot poygasi"; Hunarmandchilik bilan bog'liq o'yinlar: "Arg'imchoq", "Sopol o'yini", "Besh tosh", "Sandiqcha"; ga ajratib o'rganish mumkin. Hozirgi kunda bu o'yinlarning barchasi bayramlarda sport musobaqasi shaklida o'ynalib kelinmoqda.

Xulosa qiladigan bo'lsak, XX asr oxiri – XXI asr boshlarida o'yin madaniyati borasida ikki yo'nalish ko'zga tashlanadi. Birinchidan, milliy o'yinlarning tiklanishi va izlanib o'rganilishi, ikkinchisi, yangi o'yinlar transformatsiyalashib, rivojlanib sport turiga ham aylanish yo'nalishlaridir. Buxoro shahrida istiqomat qilib kelayotgan o'zbek va tojiklarning biror bayramlari hatto to'ylari ham xalqimizning milliy o'yinlarisiz o'tmagan. Bu o'yinlar:

- birinchidan, Xalq o'yinlari - ajdodlarimizning eng qadimiy, tarixiy qadriyati hamda ko'pgina madaniyatining shakllari chashmasi - raqs, teatr, sport, marosimlar kabilar aynan o'yinlar zaminida kelib chiqqan bo'lib, tarixiy jarayonlarda o'yinlar avlod-ajdodlarimizning sog'lomlashtiruvchi vositasi hisoblanadi;

- ikkinchidan, ota-bobolarimiz ta'biri bilan aytganda, xalq o'yinlari va musobaqalari yordamida yoshlarimiz aqlan raso, ruhan tetik, jismonan baquvvat bo'lib kelgan.

Kelib chiqishi jihatidan qadim tarix zarvaraqlariga bitilgan 200 dan ortiq bo'lgan bunday xalq o'yinlari bugun zamonaviylashtirilgan teatr tomoshalarida, professional ijrochilar tomonidan sahnalarda namoyish etilib, xalqning orzu-umidlari, kelajakka ishonch, intilishlarini o'zida mujassam etib, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqatli bo'lishga undaydi.

*"Tomosha san'atidagi modernizatsiya jarayonlari"* paragrafida shahar o'zbek va tojiklari tomosha san'atining eng qadimgi davrdan hozirgacha bo'lgan ko'rinishlari tadqiq etilgan. Tomosha – tomoshabin ko'z oldida namoyish etilgan, yuqori saviyada badiiy jihatdan estetik bezatilgan, effektli ijro uslublaridan mohirona foydalanilgan, tomoshabin ko'rib zavq oladigan va bevosita shu tadbirda ishtirokchiga aylanadigan madaniy tadbir. Tadbir esa ana shu bayram va tomoshalarning u yoki bu darajada tashkil etilishidir. U ma'lum sanaga, ma'lum bir vaqtda ma'lum mavzuga va boshqa jihatlarga bag'ishlangan bo'lishi ham mumkin. Mana shu jihatlar (tadbir va tomosha) bir-biridan ajralmagan holda yagona bayram shaklida yuzaga keladi, hamda bir-birini to'ldirib turadi. Bayramlarni ommaviy shaklda tashkil etishda u o'tkaziladigan maydon, joy tanlanishi katta ahamiyatga ega.

O'zbek tomosha san'atining muhim yo'nalishi sifatida an'anaviy teatr, raqs va sirk san'atlari, bayramlar, sayillar, maydon tomoshalarini o'rganish muhim

ahamiyatga ega bo'lib, tomosha san'ati, bayram va sayillar tarixini o'rganish, hamda bu borada tadqiqot ishlarini olib borish XX asrdan kuchayib bordi. Etnograf, filolog, yozuvchi va matbuot xodimlari tomosha san'ati namunalari yozib olish orqali tomosha san'atlari, bayramlar tarixini jiddiy ilmiy tadqiq etishga kirishdilar. Tomoshalar ko'pincha teatrlashtirilgan, sahna ko'rinishi shaklida bo'ladi. Ko'pgina tomoshalarining ildizi qadimda zardushtiylik dini bilan bog'liq bo'lgan. Ot, xo'kiz, qo'chqor, xo'rozni ro'zg'or barakasi hisoblashsada, bularni musobaqalarda, tomoshalar uyushtirish uchun boqishgan. Hatto, Buxoro amiri Sayid Olimxon ham jangari qo'chqorlarni boqishga va ularni qo'chqor urishtirish tomoshalarida ishtirok etishiga qiziqqan.<sup>25</sup>

Tomosha – tomoshabin ko'z oldida namoyish etilgan, yuqori saviyada badiiy jihatdan estetik bezatilgan, effektli ijro uslublaridan mohirona foydalanilgan, tomoshabin ko'rib zavq oladigan va bevosita shu tadbirda ishtirokchiga aylanadigan madaniy tadbirdir. Tadbir esa ana shu bayram va tomoshalarining u yoki bu darajada tashkil etilishidir. U ma'lum sanaga, ma'lum bir vaqtda ma'lum mavzuga va boshqa jihatlariga bag'ishlangan bo'lishi ham mumkin. Mana shu jihatlar (tadbir va tomosha) bir-biridan ajralmagan holda yagona bayram shaklida yuzaga keladi, hamda bir-birini to'ldirib turadi. Bayramlarni ommaviy shaklda tashkil etishda u o'tkaziladigan maydon, joy tanlanishi katta ahamiyatga ega. Maydon tomoshalarida bayram rahbari va bosh rejissor rahbarligida yuzdan ortiq turli toifa sahnalashtiruvchi ijodkorlar – ommaviy tomoshalar bosh rejissorlari, bosh baletmeyster, badiiy lavhalar bosh baletmeysterlari, orkestrlar va ansambllar rahbarlari, muvofiqlashtiruvchi rejissorlar, sahnalashtiruvchi rejissorlar, shuningdek, qator sahnalashtiruvchi baletmeysterlar, rassomlar, suxandonlar, ovoz rejissorlari, ovoz operatorlari, ijodiy – tashkiliy guruh, liboschilar, pardozlovchilar, texnik ta'minotchilar bayramni tayyorlash va o'tkazishdek sermashaqqat ishni birgalikda, hamjihatlikda amalga oshiradilar.<sup>26</sup>

Buxoro azaldan teatr, bayram va tomoshalarga boy shahar hisoblanib, bu yerda bayram va tomoshalar ko'rsatishning butun bir tizimi mavjud bo'lgan. Yilning har to'rt fasliga, hattoki, har bir oyiga, har bir sanaga tegishli bo'lgan bayramlar, marosimlar va tomoshalar keng xalq ommasi orasida nishonlangan. Xuddu shunday tomoshalar to'g'risida Sadridin Ayniy "Esdaliklar"ida quyidagi fikrlarni keltiradi: "Tomosha uchun belgilangan maydonning tevarak-atrofini juda ko'p tomoshabinlar bosgan, qo'llarida uzun tayoqlari bo'lgan yasovullar tomoshabinlarni "urho-ur, surho-sur" qilib orqaga itarib turardilar. Agar shunday qilmaganda, tomoshabin olomon oldin kelib cholg'uvchilarni, o'yinchilarni, gulxan va o'g'irlarni bosishlari turgan gap edi".<sup>27</sup>

XIX asr oxiri – XX boshlarida bunday ko'pkarida ishtirok etgan mashhur chavandozlar: Qorako'ldan – Yoriqul, Poykanddan – Murod polvon, Vobkentdan Kali Sharof, Buxoroning o'zidan Qodirqulbek xalq orasida mohir chavandozligi bilan mashhur bo'lishgan.<sup>28</sup> Olib borilgan tadqiqotlar natijasida aholi orasida

<sup>25</sup> Dala yozuvlari: Buxoro shahar Jalol Ikromiy MFY. Alisher Navoiy shoh ko'chasi. 34 uy. 2023 yil 24 iyun

<sup>26</sup> "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal / ISSN 2181-063X Volume 4 Issue 2 / April 2023

<sup>27</sup> Sadridin Ayniy: Эсдаликлар. 1 – 2 қисм. Тошкент. "Бадий адабиёт". 5 – том. 1965. – Б. 119.

<sup>28</sup> Бухоро шарқ дурдонаси: Моддий ва маънавий маданият // Байрам ва томошалар. Тошкент. "Шарқ".- Б. 131

tomosha san'atini o'rganishga qiziqish ortib borganini o'sha davr tarixini o'rgangan olimlar tomonidan yozilgan asarlar orqali bilishimiz mumkin. XX asr boshidan Buxoroda eng rivojlangan tomosha san'ati bu teatrlashtirilgan tomoshalar va raqs bo'lib, bunday tomoshalar hozirgi kunda ham bayramlarning asosini tashkil etadi. Ayniqsa Buxoro shahridagi Sadridin Ayniy nomidagi davlat musiqali drama va komediya teatri – to'ng'ich o'zbek professional teatrlaridan biri bo'lgan.

Shuningdek, masxarabozlik va qiziqchilik asrlar davomida shakllangan og'zaki, an'anaviy professional teatr bo'lib, ikki shaklga bo'lgan holda o'rganiladi:

1. Masxaraboz va qiziqchilar teatri.
2. Qo'g'irchoq teatri.

Har ikkala ko'rinishdagi teatr an'anaviy xalq teatlari hisoblanib, XX asrning boshlaridayoq yuzaga kelgan yevropacha tipdagi o'zbek professional teatrlarining sarchashmasiga aylangan. Shuningdek, bir guruh o'yin va tomoshalar ham bo'lganki, ularni hozirgi tushuncha bilan "an'anaviy teatr" deb ham aytishimiz mumkin. Ular uchta toifaga bo'linadi: kulgili tomoshalar ("kulgi madaniyati"), qovurchoq o'yin, hikoya uslublarida olib boriladigan jiddiy tomoshalardir. Har bir toifa yana o'z navbatida bir necha turni o'z ichiga oladi. Kulgili tomoshalar masxara, taqlid va zarofat kabi turlarga bo'lingan bo'lib, uning negizini kulgi, yani taqlid (parodiya), hazil va hajv tashkil etadi. Taqlid (parodiya) maydon tomoshalari turkumiga aylantirilgan bo'lib, muqallidlar (muqallidchilar) deb ham ataladi. Muqallidchilar odatda yakka-yakka bo'lib chiqishadi, inson, qush yoki hayvonlarning ko'rinishi, ularning odatlari va qiliqlariga taqlid qilgan holda tomoshabinlarni kuldirishgan.

Buxoro masxarabozlari sharoitga qarab o'z tomoshalarini o'zbek va tojik tillarida olib borganlar. Yillar o'tgan sari xalk tomoshalarida qiziqchilik, masxarabozlik va muqallidlik bilan, badihago'ylik esa askiyabozlik bilan uyg'unlashib ketadi. Muqallidlik shaklidagi tomoshalarda qushlar va hayvonlarga taqlid qilingan, hayotdagi ba'zi bir kishilar xulqatvori, ko'rinishi to'g'risidagi qiziq voqealar kulgili tarzda aks ettirilgan. Muqallidlar asosan 3 xil ko'rinishda: hajviy Muqallidlar ("Xum o'g'risi", "Qimorbozlar", "Sudxo'r akam jon beradi"), parodiyalar ("Uloqchilik", "Kelin tushdi", "Yog'och polvon", "Novvoylik"), pantomimalar ("Kiyik o'yin", "To'rg'ay", "Bedana o'yin") bo'lgan. Muqallidlik tomoshalarida nutqdan ko'ra ijrochi masxaraboz va qiziqchining sahnaviy harakati, holatlari, yuz va ko'z ifodalari tuzilishi, xalq oldida shunday ko'rinishda tomosha ko'rsatishi muhim bo'lganva shu holatda o'z mahoratini namoyon etishi kerak bo'lgan.

Xullas, har bir ommaviy tomoshada g'oyasi va mazmuniga muvofiq ishlaydigan katta ijodiy guruh faoliyat olib boradi. Har bir ijodiy guruh o'z yo'nalishi bo'yicha ijodiy asar yaratadi. Barcha ijodkorlar uyg'unlikda bir ssenariy asosida ish olib borishi tomoshaning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Bayram tomoshalarni tashkil etishdagi o'ziga xoslik har bir bayramga individual yondashuvda ko'zga tashlanadi. Milliy bayramlar, madaniy tadbirlar, tarixiy

sanalar, xalq bayramlarini tashkil etishda turlicha yondashuvlardan foydalaniladi. Bunda bayram mazmun – mohiyati hisobga olinadi.

## XULOSA

Ushbu dissertatsiya bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Buxoroda shahar moddiy va ma'naviy madaniyati shakllanishining tarixiy ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Hamda bir qator tarixiy bosqichlarni bosib o'tgan. Ma'naviy madaniy rivojida bayramlar, sayillar muhim ahamiyatga ega bo'lib, zamonlar o'tishi bilan yo'nalishlar takomillashib, yuksalib bordi va mustaqillik sababli barkamol inson tarbiyasining muhim omiliga aylandi. Istiqlol yillarida xalq milliy o'yinlarini tiklash, takomillashtirish, rivojlantirish, o'tmish va zamonaviylikni uyg'unlashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

2. Buxoro shahri ikki qismdan: eski va yangi shaharlardan iborat bo'lib, shaharning har ikkala qismida aholisining asosiysi o'zbek va tojiklari hisoblangan. Shu sababli shahar o'zbek va tojiklarining an'anaviy sayillari, bayramlari va tomoshalari o'ziga xos ko'rinishda tashkil etilib kelinmoqda. "Navro'z", "Mustaqillik kuni", "Hosil bayrami" va turli tarixiy sanalarga bag'ishlab o'tkazilayotgan an'anaviy bayramlar, madaniy tadbirlarda kurash, boks, kuch sinash, tosh ko'tarish, yugurish, yurish, sharqona yakka kurashlar va boshqa milliy o'yinlar, ayniqsa, poyga, dorboz kabi tomoshabop o'yinlar namoyish etilib kelingan.

3. Oilalarda va ta'lim-tarbiya maskanlarida bayramlar, sayillar munosabati bilan an'anaviy harakatli o'yinlar va mashg'ulotlar asosida milliy mentalitetga mos harakatli o'yinlardan foydalanish yo'lga qo'yildi va musobaqalar tashkil etila boshlandi. Ushbu o'yinlarda bolalarning yosh xususiyatlari hisobga olingan holda bosqichma-bosqich o'tkazilgan.

4. Mustaqillik yillarida O'zbekitonda, jumladan Buxoro shahrida bayram va sayillarni tashkillashtirishga, modernizatsiyalashtirishga va rivojlantirishga katta e'tibor berildi. Eng avvalo, shaharning boy tarixiy-madaniy merosini butun dunyoga yangidan tanitish maqsadida "Mustaqillik kuni" jumladan "Buxoro shahri kuni" kabilar o'tkazilmoqda. Shahar 2500 yillik yubileyi nishonlanishi munosabati bilan bayramlar, sayillar tashkil etilib, bu tadbirlar anjumanlardan boshlanib, xalq milliy o'yinlari bo'yicha musobaqalar bilan davom ettirildi.

5. Tomoshalar zamirida xalqimizning asriy orzu intilishlari aks etgan. Milliy an'ana va qadriyatlarimiz rivojlanib, xalqaro festivallarni tashkil etish asnosida shaharda hunarmandchilik va gastronomik turizm yuksalishi uchun imkoniyatlar yanada kengaydi.

6. Musobaqa, o'yinlar va festivallar o'tishini ommaviy tadbirlar sifatida tashkil etish ovqatlanish maskanlari, zamonaviy mehmonxona va mehmon uylari qurish, avtomashinalar to'xtash joylari kabi infratuzilmalar yaratish hamda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirishni taqozo qildi.

7. Xalqning uzoq asrlardin buyon nishonlab kelgan bayramlari transformatsiya jarayonlaridan o'tib sayqallashdi va yangi mazmun bilan boyidi.

Masalan, “Navro‘z” ommaviy xalq bayramining ildizlarini asossiz ravishda islom diniga bog‘lab sovet hokimiyati yillarida “Navbahor” nomi bilan o‘zgartirildi. Xalqning tabiat qo‘ynida nishonlanadigan sevimli bayrami amalda keng miqyosda nishonlanmay qoldi. Faqatgina istiqlol xalqimizga ushbu bayramni to‘laligicha qaytardi. Bayramlar, sayillar ma‘naviy-axloqiy tarbiya vositasiga aylandi.

8. Tomosha, sayil, bayramlarni o‘tmishga qayta, bizdan uzoq bo‘lmagan Buxoro amirligi davrida amirlar, amaldorlar va a‘yonlar tashkil etgan bo‘lsa, istiqlol yillarida maxsus prezident farmonlari, vazirlar mahkamasi qarorlari asosida tashkil etish, bu sohaga davlat miqyosida e‘tibor qaratilib, maxsus rejissor, ijodkor va shoirlar tomonidan ssenariy, kompozitsiyalar tayyorlab o‘tkazish an‘anaga aylandi.

9. Xalq bayram, sayil va tomoshalariga mustaqillik yillarida modernizatsiya jarayonlari bilan birga, yangilari qo‘shildi. Jumladan, “Ipak va ziravorlar”, “Hunarmandlar ko‘rgazmalari”, o‘yinlardan “Universiada” va hokazolarni sanab o‘tish mumkin.

10. Buxoroi sharif o‘zining flora va faunasi, shuningdek, cho‘l-voha va cho‘l dasht hududida joylashgani, shaharda qadimiy madaniy markaz mavjudligi kabi omillar tufayli bayram, sayil va tomoshalarni tashkil etish, o‘tkazishda o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turganligi tadqiqotda tahlil etildi.

11. Buxoro shahri aholisi asosan zulisonayn (ikki tilli: o‘zbek va tojik) bo‘lganligi o‘zbek va tojik xalqlari asrlar davomida birga yonma-yon yashab kelganligi, o‘zaro qavm-qarindoshlik aloqalari mustahkamligi tufayli bayram, sayil va tomoshalarda birga ishtirok qilib kelganligi, ko‘p jihatlarda bu borada mushtaraklik mavjudligi namoyon bo‘lganligi isbotlandi.

*Tadqiqot yakunida qo‘lga kiritilgan ilmiy xulosalar asosida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:*

Buxoro shahridagi mahallalar, oilalar, ta‘lim muassasalari ishtirokida xalq milliy o‘yinlarini o‘zida jalb qilgan turli ma‘rifiy tadbirlar, musabaqalar tashkil etish orqali unutilib borilayotgan qadriyatlarimiz, an‘analarimiz, xalq o‘yinlarini tiklash;

shahar bayramlari, sayillari va tomoshalari tarixiga oid ilmiy-ommabop risola va kitoblar chop etish;

o‘quvchilar, talabalar, mustaqil tadqiqotchilarni jalb etgan holda birgalikda milliy qadriyatlarimiz va an‘analarimizni, xalq tarixi, urf-odatlarini targ‘ib qilishga, etnoturizm sohasi rivojiga xizmat qiluvchi turli tillardagi ko‘rsatuvlarni doimiy tarzda tashkil qilish va ommalashtirish;

hudud an‘anaviy bayramlari, sayillari va tomoshalari bilan bog‘liq bo‘lgan materiallarning internet veb-saytlarini yaratish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**ЮСУПОВА МАНЗУРА УКТАМОВНА**

**“ПРОЦЕССЫ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭТНОТЕРРИТОРИАЛЬНЫХ  
ОСОБЕННОСТЕЙ ТРАДИЦИОННЫХ ЗАСТОЛИЙ, ПРАЗДНИКОВ И  
ПРЕДСТАВЛЕНИЙ УЗБЕКОВ И ТАДЖИКОВ БУХАРЫ ВО ВТОРОЙ  
ПОЛОВИНЕ XX – НАЧАЛЕ XXI ВЕКА (ИСТОРИКО-  
ЭТНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ)”**

**07.00.07 – Этнография, этнология и антропология**

**АВТОРЕФЕРАТ**  
диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам

**Нукус – 2025**

Тема докторской диссертации по историческим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером №B2023.4.PhD/Tar1751.

Диссертация была выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на сайте Ученого совета ([www.karsu.uz/](http://www.karsu.uz/)) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet». ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:** Ачил Буриев  
Кандидат исторических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Абдуллаев Улугбек Сайданович  
Доктор исторических наук, профессор.  
Рахмонов Фахриддин Шаймардонович  
Доктор исторических наук, профессор.

**Ведущая организация:** Каракалпакстанское отделение Академии наук Республики Узбекистан Каракалпакский НИИ гуманитарных наук


Защита диссертации состоится « 7 » VIII 2025 года, в 15:00 часов на заседании Научного совета DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 при Каракалпакском государственном университете. (Адрес: 230100, город Нукус, улица Ч.Абдирова, №1. Исторический факультет Каракалпакского государственного университета. Тел.: (99361) 223-60-49; факс: (361) 223-60-49; e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета (зарегистрировано за № 338). (Адрес: 230100, город Нукус, улица Ч.Абдирова, №1. Исторический факультет Каракалпакского государственного университета. Тел.: (99361) 223-60-49; факс: (361) 223-60-49


Автореферат диссертации разослан « 21 » VII 2025 года.  
(Протокол рассылки за № 18 от « 21 » VII 2025 года).



М.А.Карлыбаев  
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук (DSc), профессор



Х.М.Отегенов  
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по историческим наукам (PhD), доцент



Б.А.Кошанов  
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В то время как в мире набирают обороты процессы глобализации, столкновение интересов, а также угрозы национальной самобытности и культурным ценностям продолжают нарастать. В результате все больше возрастает необходимость сохранения локальных культур и ценностей народов, проживающих в разных регионах Земли. Эта потребность способствует обеспечению мира, безопасности, межнационального согласия, толерантности и стабильности, открывая перспективный путь в будущее. По этой причине исследование обычаев, традиций и национальных ценностей народов, а также всестороннее изучение их уникальных особенностей остается приоритетной научной задачей.

Во многих ведущих научно-исследовательских учреждениях и центрах мира ведутся эффективные исследования, посвященные истории происхождения различных этносов, их менталитету, этнокультуре, праздникам, зрелищным представлениям и играм. В результате были собраны ценные сведения о возникновении и этапах развития ряда народов, их национально-этнических традициях и этнокультуре, которые были включены в научное направление. Однако до сих пор не проведено комплексное изучение традиционных праздников, народных гуляний, национальных игр и зрелищных представлений узбекского и таджикского народов, связанных с всемирно известным городом Бухарой.

В Новом Узбекистане сохранение национальной самобытности, менталитета, традиций и ценностей, прошедших сквозь века, а также научное исследование национально-культурного наследия, исторических ценностей и обычаев народов поднимается на уровень государственной политики. Как отметил Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев: «Благодаря политике толерантности в Узбекистане созданы все условия для представителей различных народов и национальностей, проживающих в нашей стране единой семьей, чтобы они могли развивать свой родной язык, обычаи и традиции».<sup>1</sup>

Исходя из этого, перед узбекской этнологией стоит приоритетная задача изучения этноистории традиционных народных гуляний, праздников, национальных игр и зрелищных представлений узбекского и таджикского народов, проживающих в городе Бухаре. Именно эта актуальность определяет выбор темы данной диссертации.

Настоящая диссертация в определенной мере способствует выполнению задач, поставленных в Указе Президента Республики Узбекистан от 29 октября 2020 года № PF-6097 «*О концепции развития науки до 2030 года*», Указе Президента от 28 января 2022 года № PF-60 «*О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы*», Указе Президента от 11 сентября 2023 года № PF-158 «*О стратегии Узбекистан-2030*», а также в

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида // Халқ сўзи, 2017 йил 8 февраль.

Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 28 сентября 2022 года № 543 «О мерах по дальнейшему развитию сферы туризма в Бухарской области на 2022–2026 годы» и других нормативно-правовых документах, касающихся данной сферы.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологии в Республике.** Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

**Степень изученности проблемы.** Исторические письменные источники, архивные документы, статистические данные, историко-научная литература, археологические находки, этнографические полевые данные при полном изучении истории традиционных праздников, фестивалей и представлений узбеков и таджиков города Бухары, сведения об источнике. Наука и историография данной темы подробно рассмотрены во втором абзаце первой главы диссертации.

**Связь диссертационного исследования с планами научно-исследовательских работ высшего образовательного учреждения, где выполнена диссертация.** Научно-исследовательская работа выполнялась в соответствии с планом научных исследований Бухарского государственного университета в рамках проекта «Материальная и нематериальная культура Бухарского оазиса: археологические и этнологические исследования».

**Цель исследования** - проанализировать процессы трансформации традиционных обычаев, праздников и представлений узбеков и таджиков, проживающих в городе Бухаре, в историко-этнологическом направлении.

**Достижение цели предполагает решение следующих задач:**

- Описание природно-географической характеристики города Бухары, его этнического состава и размещения населения, а также освещение источниковедения и историографии темы.

- Характеристика процессов трансформации традиционных народных гуляний и праздников узбеков и таджиков города Бухары.

- Анализ исторических корней национальных игр узбеков и таджиков региона, а также описание изменений, произошедших в них.

- Обоснование процессов модернизации в зрелищном искусстве узбеков и таджиков города Бухары.

- Обобщение накопленного опыта путем изучения локальных особенностей и общих черт народных гуляний, праздников и зрелищных представлений узбеков и таджиков города.

- Формулирование выводов, предложений и рекомендаций по теме исследования.

**Объектом исследования** выбраны процессы трансформации этнорегиональных особенностей традиционных народных гуляний, праздников и зрелищных представлений узбеков и таджиков города Бухары.

**Предмет исследования** охватывает аспекты этнорегиональных особенностей традиционных народных гуляний, праздников и зрелищных представлений узбеков и таджиков города Бухары, а также освещение локальных особенностей и процессов трансформации в традиционных и современных праздниках, народных гуляниях и зрелищных мероприятиях.

